

AKADEMIK ABDULAHAD MUHAMMADJONOVNING O‘ZBEKISTON TARIXI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Davlatboyev Dostonbek Sa’dulla o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada akademik Abdulahad Muhammadjonovning O‘zbekiston tarixshunosligi va arxeologiya fanining rivojlanishidagi o‘rni yoritiladi. Olimning qadimgi va o‘rta asrlar tarixi, sug‘orma dehqonchilik tizimlari, tarixiy geografiya hamda moddiy madaniyat yodgorliklarini o‘rganish borasidagi ilmiy izlanishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ilmiy merosi, tarix faniga olib kirgan metodologik yangiliklari hamda yosh tadqiqotchilarni tayyorlashdagi xizmatlari yoritilib, bugungi tarixshunoslik rivojidadagi ahamiyati baholanadi.

Kalit so‘zlar: Abdulahad Muhammadjonov, tarixshunoslik, arxeologiya, O‘zbekiston tarixi, tarixiy geografiya, sug‘orma dehqonchilik, ilmiy meros, madaniy meros, tarixiy manbalar.

Har qanday xalqning taraqqiyotini uning tarixini mukammal o‘rganmasdan tasavvur etib bo‘lmaydi. Mustaqillik yillarida milliy tarixni ilmiy asosda qayta o‘rganish va tarixiy haqiqatni tiklash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda o‘zining serqirra ilmiy faoliyati, fundamental tadqiqotlari va boy ilmiy merosi bilan tarix fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olimlarning xizmatlarini chuqur o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Zero, tarix fanining bugungi taraqqiyot darajasi uni rivojlantirgan yirik olimlarning ilmiy qarashlari, metodologik yondashuvlari va amaliy tadqiqotlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ana shunday yirik tarixchi olimlardan biri akademik Abdulahad Muhammadjonov hisoblanadi. U o‘zining ko‘p yillik ilmiy faoliyati davomida O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlar tarixi, tarixiy geografiyasi, sug‘orma

dehqonchilik va irrigatsiya tizimlari, tarixiy toponimika, manbashunoslik hamda arxeologiya sohalarida fundamental tadqiqotlar olib bordi. Olim tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida O'zbekiston hududidagi qadimgi vohalarning shakllanishi, sug'orish inshootlarining vujudga kelishi va rivojlanishi, tarixiy shaharlarning taraqqiyot bosqichlari hamda ularning tabiiy-geografik muhit bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ayniqsa, Buxoro va Toshkent shaharlarining qadimiy tarixi hamda yoshini aniqlash borasidagi ilmiy izlanishlari mamlakatimiz tarixshunosligida muhim o'rin tutadi.

Abdulahad Muhammadjonov ilmiy faoliyatining muhim jihatlaridan yana biri yozma manbalarni arxeologik, etnografik va tarixiy-geografik materiallar bilan qiyosiy tahlil qilish metodini keng qo'llaganidadir. Mazkur yondashuv O'zbekiston tarixining ko'plab bahsli masalalariga ilmiy yechim topish, tarixiy voqea va jarayonlarni kompleks o'rganish hamda ularni xolis baholash imkonini yaratdi. Shuningdek, olim tarixiy toponimika va manbashunoslik yo'nalishida olib borgan tadqiqotlari orqali milliy tarixshunoslikda yangi ilmiy qarashlarning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shdi.

Abdulahad Muhammadjonov XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan yetuk tarixchi va arxeologlardan biri bo'lib, butun ilmiy faoliyatini O'zbekiston tarixini chuqur o'rganishga bag'ishladi. U uzoq yillar davomida ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etib, yuzlab tarixiy yodgorliklarni tadqiq qildi.

Uning ilmiy ishlari O'rta Osiyoda sug'orma dehqonchilik, irrigatsiya, gidrotexnika hamda dehqonchilik vohalarining vujudga kelishi va taraqqiyoti tarixiga bag'ishlangan. U Buxoro va Toshkent shaharlarining qadimiy tarixini, ayniqsa, ularning yoshini ilmiy asoslashga munosib hissa qo'shgan. Shuningdek, Vatanimizning tarixiy toponimiyasi bo'yicha ilmiy asarlar va maqolalar nashr etib, tarixiy manbashunoslik sohasida yangi ilmiy yo'nalishga asos solgan.¹

Abdulahad Muhammadjonov akademik Yahyo G'ulomovning eng iste'dodli shogirdlaridan biri edi. U olimning ilk shogirdlari safidan o'rin olgan. Yahyo

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulahad_Muhammadjonov internet manzili

Gʻulomov unda arxeologiya faniga chuqur qiziqish uygʻota oldi. Natijada A. Muhammadjonov oʻz ustozlari bilan Mohandaryo arxeologik ekspeditsiyasida uzoq yillar faoliyat olib bordi.² Sugʻorma dehqonchilik tarixini arxeologik tadqiqotlar asosida oʻrganish uning butun ilmiy faoliyatining asosiy mazmuniga aylandi. Shu bois u akademik Yahyo Gʻulomov ilmiy rahbarligida 1973-yilda «Quyil Zarafshon vodiysining sugʻorilish tarixi (qadimgi zamondan XX asr boshlarigacha)» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.³ U 1956-yilda ustozlari Yahyo Gʻulomov bilan birgalikda Buxoro yaqinidagi Qizilqir arxeologik ekspeditsiyasida ilk bor ishtirok etgan. Keyinchalik olim oʻz xotiralarida ustozining ish uslubidagi puxtalik, tadqiqot rejasining aniq va izchil tuzilishi hamda ilmiy talabchanligini alohida eʼtirof etadi.⁴

Abdulahad Muhammadjonov ilmiy faoliyatida tarixiy geografiyani oʻrganish orqali qadimgi vohalarning shakllanishi, daryolar oʻzanining oʻzgarishi, aholi joylashuvi va shaharlarning rivojlanishini tabiiy-geografik omillar bilan bogʻliq holda tahlil qildi. U tarixiy xaritalarni yozma manbalar hamda arxeologik materiallar bilan solishtirish orqali yangi ilmiy xulosalarga erishdi.

Mazkur tadqiqotlar natijasida Oʻzbekiston hududidagi koʻplab qadimgi shaharlarning joylashuvi, iqtisodiy aloqalari va taraqqiyot bosqichlari yanada aniqroq belgilab berildi.

Abdulahad Muhammadjonovning ilmiy faoliyatidagi eng muhim yoʻnalishlardan biri qadimgi sugʻorish tizimlarini oʻrganishdir.

Olim Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo va Sirdaryo havzalaridagi qadimgi kanallar, ariqlar va irrigatsiya inshootlarini ilmiy jihatdan tadqiq etdi. U sugʻorma dehqonchilikning rivojlanishi bilan shahar madaniyatining taraqqiyoti oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni asoslab berdi.

² Muhammadjonov A. Quyil Zarafshon vodiysining sugʻorilish tarixi (qadimgi davrdan XX asr boshlarigacha). – Toshkent: Fan, 1972. – 47 b.

³ Muhammadjonov A. Tarix falsafasi – maʼnaviyat koʻzgusi. T: Oʻzbekiston, 2015, 12-bet.

⁴ Baxritdinov Jasurbek Mirzabek oʻgli. Akademik Abdulahad Muhammadjonovning Oʻzbekistonda tarix va arxeologiya fanlari rivojiga qoʻshgan hissasi. Maqola. 2025, 54-b.

Abdulahad Muhammadjonovning O'zbekiston sug'orma dehqonchiligi va irrigatsiya tarixiga bag'ishlangan «Quyí Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan XX asr boshlarigacha)» nomli asari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur asarda Buxoro va Samarqand vohalarining suv bilan ta'minlanish tarixi, qadimgi sug'orish inshootlari va irrigatsiya tizimlarining shakllanishi hamda rivojlanishi arxeologik, etnografik, arxiv va yozma tarixiy manbalar asosida chuqur tahlil qilingan. Olim ushbu manbalarni o'zaro qiyosiy o'rganish orqali qadimgi sug'orish tizimlarining vohalar taraqqiyoti va dehqonchilik madaniyatining rivojlanishidagi o'rnini ilmiy dalillar asosida yoritib bergan.⁵

Muhammadjonovning tadqiqotlari tufayli qadimgi dehqonchilik madaniyatining shakllanishi, yer o'zlashtirish jarayonlari hamda suvdan foydalanish an'analari tarixiy jihatdan chuqur o'rganildi. Akademik ko'plab arxeologik ekspeditsiyalarda faol qatnashgan va tarixiy yodgorliklarni o'rganishda bevosita ishtirok etgan. Qazishmalar davomida topilgan sopol buyumlar, tangalar, mehnat qurollari, me'moriy qoldiqlar va boshqa moddiy manbalar asosida qadimgi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti ilmiy jihatdan tiklandi.

Abdulahad Muhammadjonov «Qang' - qadimgi Toshkent va toshkentliklar» asarida Qang' davlati va uning markaziy hududlaridan biri sifatida qadimgi Toshkent vohasining tarixiy taraqqiyotini arxeologik, yozma va numizmatik manbalar asosida tahlil qiladi. Muallif Toshkent vohasining qadim zamonlardan buyon yirik dehqonchilik va hunarmandchilik markazi bo'lib kelganini, uning Buyuk Ipak yo'li tizimidagi strategik o'rnini ilmiy dalillar bilan asoslaydi.⁶

Asarda Qang' davlatining siyosiy tuzilishi, aholining etnik tarkibi, xo'jalik hayoti va qo'shni hududlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari keng yoritilgan. Muallif Toshkent vohasi tarixini o'rganishda arxeologik topilmalar bilan yozma manbalarni o'zaro qiyoslash metodidan foydalanib, qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi yuzasidan muhim ilmiy xulosalarni ilgari suradi. Shubhasiz, bu asar

⁵ <https://ilmiykutubxona.com> internet manzili

⁶ Abdulahad Muhammadjonov «Qang' - qadimgi Toshkent va toshkentliklar» Toshkent: Sharq, 2009.

Toshkentning qadimgi va o'rta asrlar tarixi va uning mamlakatdagi madaniy, siyosiy, strategik o'rnini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Abdulahad Muhammadjonov Sharq va G'arb tarixchilari asarlarini chuqur o'rganib, arab, fors va qadimgi turkiy manbalarda uchraydigan geografik nomlar, shaharlar va vohalarni ilmiy jihatdan aniqlashtirishga katta hissa qo'shdi.

Bu esa O'zbekiston tarixining ko'plab bahsli masalalariga ilmiy yechim topilishiga xizmat qildi. A.Muhammadjonovning T.Ne'matov hamrohligida yozilgan "Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixi" asari ham O'zbekiston, xususan O'rta Osiyo tarixi haqidagi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

XIX asrning 20–50-yillarida Buxoro xonligi va Rossiya munosabatlariga oid nashr etilgan asosiy manbalarning deyarli aksariyati memuar xarakteriga ega bo'lib, ular Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida yuborilgan diplomatik missiyalar hamda elchiliklar tarkibida qatnashgan mutaxassislar, sayohatchilar va savdogarlar tomonidan yozib qoldirilgan safarnomalar, xotiralar va kundaliklardan iboratdir.⁷

Mazkur memuar asarlar, asosan, O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasida yaratilgan bo'lib, ular ana shu aloqalarning mahsuli hisoblanadi. Shu bilan birga, bu manbalar O'rta Osiyo xalqlari tarixini, shuningdek, Rossiya bilan bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va diplomatik aloqalar tarixini o'rganishda muhim birlamchi manba vazifasini bajaradi. Rossiya va O'rta Osiyo munosabatlari ishtirokchilari tomonidan yaratilgan memuar asarlarda O'rta Osiyo xalqlari tarixining ko'plab jihatlarini yoritishga xizmat qiladigan qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Ayni paytda, ularda O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasidagi aloqalarga doir nihoyatda boy va muhim tarixiy materiallar ham keltirilgan.

Uning ilmiy rahbarligida ko'plab fan nomzodlari va fan doktorlari tayyorlandi. Shogirdlari bugungi kunda respublikaning turli ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida samarali faoliyat olib bormoqda.

Olim yaratgan ilmiy maktab tarixiy geografiya, irrigatsiya tarixi va arxeologiya yo'nalishlarining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Akademik Abdulahad

⁷ A.Muhammadjonov va T.Ne'matov. "Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixi". T. 1957. 7-b.

Muhammadjonov O'zbekiston tarixshunosligi, arxeologiyasi va tarixiy geografiya fanining taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan yetuk olimlardan biridir. Uning ilmiy izlanishlari natijasida sug'orma dehqonchilik va irrigatsiya tizimlarining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari, qadimgi vohalarning taraqqiyoti, tarixiy shaharlarning vujudga kelishi va ularning tabiiy-geografik omillar bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulahad Muhammadjonov tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar bugungi kunda ham tarixchilar, arxeologlar, manbashunoslar va oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun muhim ilmiy manba vazifasini o'tamoqda. Ayniqsa, Buxoro va Toshkent shaharlarining qadimiy tarixini o'rganish, Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi, tarixiy toponimika hamda O'rta Osiyo tarixiy geografiyasiga oid tadqiqotlari o'zining ilmiy yangiligi va dolzarbligini saqlab qolmoqda. U yaratgan ilmiy xulosalar keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, olimning pedagogik faoliyati va ilmiy maktabi ham alohida e'tiborga loyiqdir. U ko'plab yosh tadqiqotchilarni ilm-fanga jalb etib, ularning malakali tarixchi va arxeolog sifatida shakllanishiga munosib hissa qo'shdi. Shu tariqa uning ilmiy merosi nafaqat chop etilgan asarlarda, balki uning izdoshlari faoliyatida ham davom etmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tarixini xolis, ilmiy va zamonaviy metodlar asosida o'rganishda Abdulahad Muhammadjonovning ilmiy qarashlari va metodologik tamoyillari muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Uning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish milliy tarixshunoslikni yanada rivojlantirish, tarixiy merosni asrab-avaylash va yosh avlodni Vatanga sadoqat, tarixiy xotiraga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammadjonov A., Ne'matov T. "Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixi". Toshkent: 1957, 7-b.

2. Muhammadjonov A. Quyi Zarafshon vodiysining sugʻorilish tarixi (qadimgi davrdan XX asr boshlarigacha). – Toshkent: Fan, 1972. – 47 b.
3. Muhammadjonov A. Tarix falsafasi – maʼnaviyat koʻzgusi. Toshkent:: Oʻzbekiston, 2015, 12-bet.
4. Muhammadjonov A. «Qangʻ - qadimgi Toshkent va toshkentliklar» Toshkent:: Sharq, 2009.
5. Baxritdinov J.. Akademik Abdulahad Muhammadjonovning Oʻzbekistonda tarix va arxeologiya fanlari rivojiga qoʻshgan hissasi. Konf.maq. toʻp. Toshkent. 2025, 54-b.
6. <https://ilmiykutubxona.com> internet manzili
7. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulahad Muhammadjonov](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulahad_Muhammadjonov) internet manzili